



TARBIYASI QIYIN BOLALAR BILAN ISHLASH

Faxriddinova Muborak Faxridinovna

Buxoro viloyati shofirkon tumani 4-umumiy
o`rta ta`lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali muallif tarbiya xaqida so'z olib borar ekan, bolardagi muammolar ular orasidan tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash haqida tushuntiradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, deviant xulq atvor, hususiyat, ulg'ayish.

Shunday jadallik bilan rivojlanib borayotgan davlatimizda aqilli, ilmi, komil farzandlar bilan bir qatorda tarbiyasi og'ir, muammoli o'quvchilar xam uchrab turadi. Tarbiyasi qiyin bola deganda nima tushuniladi? Ota-ona ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda muvaffaqiyatli olib borishi uchun avvalo asotsial xulq-atvor bilan anomal xulq-atvor o'rtasidagi farqni va ularning nimaligini tushunib olishi kerak. Odatda axloq normalariga va jamiyat talablariga javob bermaydigan xulq-atvor va xatti-harakatlarni asotsial xulq-atvor deb ataladi. Anomal xulq-atvor va xatti-harakatlar bola miyasining patologiyasi (kasalligi) tufayli ro'y beradi. Asotsial xulq-atvor esa mikromuhitning salbiy ta'sir ko'rsatishi, oiladagi mavjud nonormal o'zaro munosabatlar, oila va maktabda beriladigan tarbiyada yo'l qo'yiladigan kamchiliklar va hokazolar tufayli ro'y beradi. Bunday xulq-atvorli bolalar jamiyatimizda ba'zan uchrab turadigan balog'atga yetmagan tartibbuzar bolalar turini tashkil qiladi. Tarbiyasi qiyin bolalar – bular tarbiyadan e'tibordan chetda qolgan, o'z holicha tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qaerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondosha bilmaslik oqibatida paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, normal ta'lim va tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari bilan normal munosabat



o'rnata olmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning to'g'ri yo'llarini topa bilmagan bolalar – tarbiyasi qiyin bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'siri o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin. Tarbiyasi qiyin bolalardagi ayrim kamchiliklar va nuqsonlar, chunonchi: qaysarlik, o'jarlik, qo'pollik singari salbiy ko'rinishlar maktabga kelmasdanoq boshlanishi mumkin. Bu, albatta, oila tarbiyasi yoki bog'cha-yasli ish faoliyati bilan bog'liqdir. Olimlarning kuzatishicha, kichik yoshdagi bolalarning o'ndan to'qqiz qismi oila sharoitida tarbiyalanadi. Bunday oilalarda ota-onalar farzandlariga yetarli darajada e'tibor bermaydilar yoki ularni erka qilib o'stiradilar. Onalar esa bolalarining yomon xulq-atvorini, xatti-harakatlarini otalaridan yashiradilar. Oqibatda bunday oiladagi bolalar ko'zbo'yamachi, xudbin, faqat o'z foydasini ko'zlaydigan, kaltafahm, bachkana, qo'rs, birovga ozor beradigan bo'lib o'sadilar. Ba'zi ota-onalar farzandi ust-boshining but bo'lishini o'ylaydilar-u, ularning ichki dunyosi, ma'naviy ehtiyojlari haqida qiziqmaydilar. Tarbiyaga nisbatan bunday munosabat tarbiyasi og'ir bolalarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Deviant xulq-atvor deganda nimani tushunsa bo'ladi?

Deviant so'zi ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, chetga og'ish degan ma'noni bildiradi. Deviant xulq-atvor deganda rasman o'rnatilgan yoki ma'lum jamiyatda (ijtimoiy guruhda) shakllangan axloqiy va huquqiy normalarga mos tushmaydigan va "buzg'unchi"ni ozodlikdan mahrum qilishga, davolashga, to'g'rilashga yoki jazoga olib keladigan xatti-harakatlar tushuniladi. Bu xatti-harakatlarning quyidagi turlarini farqlasa bo'ladi: jinoyatchilik, alkogolizm, narkomaniya, suitsid va h. Delinkvent xulq-atvor deganda nimani tushunsa bo'ladi? Delinkvent xulq-atvor tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalarda uchraydigan xulq-atvor turlaridan biri bo'lib, jinoiy tartibda jazolanmaydigan va hali jinoyat darajasiga o'sib chiqmagan xulq-atvorning mayda buzilishlari hisoblanadi. Ular bolalarning darslarga kelmay qo'yishligi, ijtimoiy xavfli guruhlarining atrofida o'ralashib qolishligi, mayda bezorilik, zaif va kichkina bolalar ustidan mazax qilish, begonalardan aldab pul undirish,



vilosiped yoki mototsikllarni olib qochish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ba'zida yoshlarda tovlamachilik, uylarga o'g'irlikka kirish, uydin qochib ketish va daydichilik singari holatlar ham uchrab turadi. Bularning asosida aksariyat hollarda ijtimoiy sabablar yotadi. Asosan tarbiyaning yetishmasligi va ota-onalarning e'tiborsizligi. Ma'lumotlarga ko'ra, bunday bolalarning aksariyati noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalardir, bolalardagi xarakterning jiddiy buzilishi bilan bog'liq, ba'zi bolalarda esa o'zlari qilayotgan ishga fikri-zikri bilan kirishib ketish (aktsentuatsiya) holatlari kuzatiladi. Masalan, bolalarning uydin qochib ketishi jazodan qo'rqish yoki norozilik belgisi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Uydin qochib ketish kattalar tomonidan yetarli darajada nazoratning yo'qligi, shunchaki ermak uchun, oiladagi o'ta qattiqqo'llikka nisbatan norozilik reaksiyasi, yaqinlar tomonidan e'tiborning yetishmasligi, xayolparastlik, zerikish, yolg'izlik natijalarida sodir bo'lishi kuzatiladi. Ota-onalar o'z farzandlaridagi bu holatlarni aniq-tiniq tasavvur qilishlari va bilishlari zarur. Ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmagan bolalar o'rtasida kuzatiladigan yuqoridagi holatlarning ijtimoiy-psixologik omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatsa bo'ladi:

- bolalarning kattalar bilan va o'zaro kelishmovchiliklari (oilada, maktabda, kollej, litseyda, turar joyida);
- bolalarning ko'chadagi o'zaro va boshqa norasmiy guruhlariga qo'shilishi va ularning faoliyatida ishtirok etishi, ushbu guruhlarining rahbarlari tomonidan ularga tazyiq o'tkazilishi;
- voyaga yetmagan bolalarning ularni u yoki bu qonunbuzarlikka yoki jinoyatga boshlovchi kattalar (ko'pincha ilgari sudlangan shaxslar) shuningdek, ularni muntazam spirtli ichimlik va narkotik moddalar iste'mol qilishga jalb etuvchi shaxslar bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari;
- voyaga yetmaganlarni alohida (oilada) va ko'pchilik tarbiyasi (o'qish joyida) jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar;



- tarbiyachilar (ota-onalar, o'qituvchilar)ning o'smirlik yosh davri va ijtimoiypsixologik xususiyatlarini bilmaslik yoki yetarli anglay olmasliklaridir.

Deviant xulqli o'smirlarni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatadi. Hatto ular o'zlarida shakllangan ijobiy xislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlariga zarba berish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir. O'smir o'g'il-qizlar shaxsning kamol topishida o'z-o'zini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zini anglash jarayonida o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular esa o'smirning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatining shakllanishiga ta'sir qiladi. O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi. Bola o'ziga namuna bo'lgan shaxsning xulq-atvori bilan o'zining xatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi. Natijada unda o'zini-o'zi tarbiyalashga bog'liq yana bir muhim xislat vujudga keladi.

O'smir o'zini-o'zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilim ishtirokchilaridan o'rnak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo'lda uchraydigan to'siq hamda qiyinchiliklarni yengadi. Ana shu davrda oilada ota-onaning bola xarakteridagi nuqsonlarni to'g'rilashdagi roli nihoyatda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun esa ota-onalarda pedagogik-psixologik ma'lumotlar (tushunchalar)ning yetarli darajada bo'lishi talab etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X. Alimov, F. Azimova. Bolalar tarbiyasi. Toshkent – 2013.
2. O'.Asqarova "Pedagogika" 2015 - yil Namangan.